**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI**

"TASDIQLAYMAN"
Namangan muhandislik – qurilish
instituti rektori
______ SH.T.Ergashev
2024 yil «30» 08 ______

NamMQI
O'quv-uslubiy boshq...
№ 10
«30» 08 20...

# TA'LIM MENEJMENTI
# FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 400000 – Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta`lim sohasi: | 410000 – Biznes va boshqaruv |
| Mutaxassislik: | 70411201- Menejment (tarmoqlar va sohalar |

**Namangan – 2024**

| Fan/modul kodi EDUMAN105 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 2 | Kreditlar 5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 5 | |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| **Ta'lim menejmenti** | 74 M-30, A-44 | | 76 | 150 |

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarda ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti sohasidagi bilim darajasini oshirish, ularda mazkur bilimlardan amalda foydalanish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Fanning **vazifalari** - talabalarga oliy ta'limni boshqarish borasidagi davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini, oliy ta'limni boshqarishni huquqiy-me'yoriy asoslari bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni, ta'lim menejmentining eng yangi metodlari va tamoyillari, ta'lim xizmatlari boshqaruvi, marketing va ta'limda innovatsiyalar bo'yicha maxsus bilimlarni o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 mavzu. «Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti»kursining maqsadi, vazifalari va mazmuni**

Ta'limda boshqaruvning mazmuni va axamiyati. «Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti» kursining mazmuni va vazifalari.

**2 mavzu. «Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti» kursining predmeti va uni o'rganish metodlari**

«Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti» kursining predmeti va uni o'rganish metodlari. "Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti" kursining boshqa fanlar bilan aloqasi va o'zaro munosabatlari. Davlat iqtisodiyotining rivojlanishida oliy ta'limning o'rni va ahamiyati.

**3 mavzu. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv metodologiyasi va tuzilishi**

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun oliy ta'lim tizimida boshqaruv metodologiyasining asosi sifatida. Oliy ta'lim tizimida boshqaruvning vazifalari va printsiplari. Menejment etakchi maktablarining rivojlanish xususiyatlari.

**4 mavzu. Rivojlangan davlatlarda menejment tizimi**

Evropa menejment ilmiy maktablarining rivojlanish xususiyatlari. Amerika menejmenti kontseptsiyalari. Yapon menejment tizimi.

**5 mavzu. Ta'lim tizimida menejmentning ilmiy asoslari va strategiyasi**

Ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyotida menejmentnng shakllanishi va rivojlanishi. Ta'limda menejment tarmoq menejmentining bir turi sifatida. Ta'limda strategik menejmetning amaliy jihatlari.

**6 mavzu. Strategiyalarning turlari va ularni ta'lim sohasida qo'llash**

Strategiyalarning turlari va ularni ta'lim sohasida qo'llash amaliyoti. Innovatsion strategiyalarni amalga oshirishda loyihalar boshqaruvining o'rni.

**7 mavzu. Ta'lim sohasida menejer faoliyati**

Menejment psixologiyasi tushunchasining mazmuni. Shaxsning individual-tipologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning kasbga ta'siri. Menejer shaxsiga qo'yiladigan talablar tizimi. Ta'lim sohasidagi menejer modeli.

**8 mavzu. Menejerlarni kasbiy tayyorlash**

Menejerlarni kasbiy tayyorlash. Menejer kasbiy faoliyatida stresslar. Karьerani rejalashtirishning psixologik jihatlari. Taъlim tizimida menejer axloqining asosiy printsiplari. Jamoa faoliyatining mazmuni va psixologik mexanizmlari. Tashkilot ijtimoiy tuzilma sifatida.

**9-mavzu. Oliy o'quv yurti o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish asoslari**

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari. Oliy ta'lim tizimini boshqarishning tashkiliy tuzilishi.

**10 mavzu. Boshqaruv ta'lim jarayonining rivojlanish omili**

Boshqaruv ta'lim jarayonining rivojlanish omili sifatida. Pedagogik boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va amalga joriy etish. Rahbarning salomatligi va ish qobiliyatini ta'minlash texnologiyalari.

**11-mavzu. Ta'lim iqtisodiyotida innovatsion boshqaruv**

Innovatsiyalarni boshqarish. Boshqaruv qarorlari menejer ishining samaradorligi mahsuli sifatida. Ishga doir munosabatlarda muloqot madaniyati.

**12 mavzu. Xodimlarning ijtimoiy xulq-atvorini rag'batlantirish**

Xodimlarning ijtimoiy xulq-atvorini rag'batlantirish. Menejer faoliyatida konfliktlar. Konfliktda xulq-atvor uslublari.

**13-mavzu. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimini boshqarish tajribasi**

Jaxonda oliy ta'limni boshqarishning xozirgi yo'nalishlari. Jahonning turli taъlim tizimlarida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash tajribasi.

**14 mavzu. Amerika, g'arbiy evropa, osiyo mamlakatlarida oliy ta'lim tizimini moliyflashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Amerika, G'arbiy Evropa, Osiyo mamlakatlarida oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Jahonda ta'lim tizimlarini isloh qilishga nisbatan asosiy yondashuvlar. Oliy taъlim tizimida xalqaro xamkorlik.

**15-mavzu. Oliy ta'lim tizimida marketingni boshqarish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida marketingning asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirish. Marketnng faoliyatini tashkil etish printsiplari. O'quv yurtida marketing va RR.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

"Ta'lim menejmenti" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar talabalarning fanni nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.«Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti» kursining maqsadi, vazifalari va mazmuni

2.«Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti» kursining predmeti va uni o'rganish metodlari

3.Oliy ta'lim tizimida boshqaruv metodologiyasi va tuzilishi

4.Rivojlangan davlatlarda menejment tizimi

5.Ta'lim tizimida menejmentning ilmiy asoslari va strategiyasi

6.Strategiyalarning turlari va ularni ta'lim sohasida qo'llash

7.Ta'lim sohasida menejer faoliyati

8.Menejerlarni kasbiy tayyorlash

9.Oliy o'quv yurti o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish asoslari

10. Boshqaruv ta'lim jarayonining rivojlanish omili

11. Ta'lim iqtisodiyotida innovatsion boshqaruv

12. Xodimlarning ijtimoiy xulq-atvorini rag'batlantirish

13. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim tizimini boshqarish tajribasi

14. Amerika, g'arbiy evropa, osiyo mamlakatlarida oliy ta'lim tizimini moliyflashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

15. Oliy ta'lim tizimida marketingni boshqarish

16. Ta'lim menejmentida reklama

17. Oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash va boshqarish bosqichlari

18. Oliy ta'lim tizimida attestatsiya va akkreditatsiya

19. Oliy ta'lim tizimi iqtisodiyoti

20. Oliy ta'lim tizimini byudjetdan moliyalashtirish

21. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish

22. Oliy ta'lim tizimida kadrlar bilan ishlash siyosati

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.Davlat dasturidan o'rin olgan makroiqtisodiy masalalar tahlili va ularning ijrosi.

2.Ta'lim iqtisodiyotini boshqarishning tashkiliy tuzilishini tahlil qilish.

3. Ta'lim xizmatlarining asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirishni tadbiq etish va loyihalashtirish.

4. Ta'lim iqtisodiyoti va menejmentida tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilish (Taqdimot ko'rinishida)

5. Pedagogik xodimlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishni tahlil qilish

6. O'qitish sifatiga va mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'ganib chiqish va taqdimot ko'rinishida topshirish.

7. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash vositalarini tahlil qilish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3 **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti masalalarining mazmun va mohiyati, ta'lim muassasasini boshqarishda ijtimoiy omillar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

oliy ta'limni boshqarish borasidagi davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini, boshqaruv yo'llari va usullarini, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy jihatdan boshqarish yo'llarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

oliy ta'lim muassasalarini moliyalash vositalarini anglab yetishi, xalqaro tajribani o'rganish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

ta'limni boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qila olish, ilmiy mushohada yuritish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

4 **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ijodiy vazifa;
- Ta'limning faol metodlari;

| | |
|---|---|
| | • insho yozish;<br>• tahliliy hisobot taqdimoti;<br>• taqdimotning video / slaydlar tayyorlash;<br>• nashrlarni tayyorlash;<br>• bilts-savolnoma;<br>• debatlar va munozaralar;<br>• mulohaza va nazorat uchun savollar;<br>• amaliy topshiriq;<br>• krossvordlar;<br>• turli darajadagi testlarni echish. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>"Ta'lim menejmenti" fani 2 semestrga mo'ljallangan bo'lib, fanni o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, amaliyot mashg'ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshiriqlarini topshirish kerak bo'ladi. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. N.S. Fayzullaeva Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. T. Lesson press, 2020, - 208 bet<br>2. N.S. Fayzullaeva Ta'lim menejmenti. Uquv qo'llanma. T.: «Fan va texnolcgiya», 2010, 160 bet.<br>3. Ф.Б. Шарипов Педагогический менеджмент. Учебное пособие. – М., Университетическая книга, 2014. – 480 стр.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Sh.N. Zaynutdinov Menedjment. – T.: Cho'lpon. – 2011. -320 ,bet.<br>2. N.Q., Yo'ldoshev, V.I. Nabokov Menejment nazariyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 360 b.<br>Internet saytlari<br>3. www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>4. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy базаси.<br>5. www.stplan.ru- Экономика и управление<br>6. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi sayti.<br>7. www. stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistика Qo'mitasi sayti. |
| 7 | Fan dasturi Namangan-muhandislik qurilish institutida ishlab chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy Kengashining 2024 yil " " dagi ..-sonli yig'ilishida tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/Modul uchun mas'ul:** |

| | |
|---|---|
| | R. Ismatov NamMQI, "Menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>I. Ibragimov - NamMTI "Menejment" kafedrasi mudiri, i f.n.<br>O. Aripov - NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d.; |